

O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYAT TUZILMASI VA UNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xasanova Farida Shodiyarovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi va o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlari, ularning shakllanish omillari hamda psixologik asoslari tahlil etilgan. Kommunikatsiya jarayoni nafaqat axborot almashinuvi, balki shaxslararo munosabatlarning barqaror shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida qaraladi. O'qituvchining samarali muloqot olib borish ko'nikmalari o'quvchilarda o'z fikrini aniq, ravon ifoda eta olish, ijtimoiy muhitga moslashish, emotsional barqarorlik kabi muhim fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada kommunikativ qobiliyat tuzilmasi – nutqiy madaniyat, tinglash malakasi, mimika va jestlardan foydalanish, ijtimoiy intuitsiya va refleksiya kabi tarkibiy qismlar asosida ochib berilgan. Bu qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari, yosh xususiyatlariga mos psixologik yondashuvlar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikativ qobiliyat, o'qituvchi, o'quvchi, muloqot, psixologik asoslar, shaxslararo munosabat, nutqiy madaniyat, refleksiya.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali kommunikatsiya muhim o'rin tutadi. O'zaro muloqot vositasida bilim, ko'nikma va malakalar uzatiladi, tarbiyaviy ta'sir amalga oshiriladi va ijtimoiy moslashuv ta'minlanadi. Shuning uchun kommunikativ qobiliyat nafaqat o'qituvchida, balki o'quvchida ham shakllanishi lozim bo'lgan asosiy psixologik fazilat hisoblanadi.¹

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgani quvonarlidir. Uning kelajakdagi taraqqiyoti, yuksalishi esa, avvalo, hozirgi yosh avlodning kamoloti bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun bugungi yoshlar har tomonlama yetuk, o'ziga, boshqalarga, jamiyat va atrof-muhitga ongli munosabat bildiradi oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega, tashabbuskor va tadbirkor bo'lib yetishishi zarur. Ushbu sifatlarning shakllanishi esa, o'z navbatida, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil eta olishi hamda o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatishiga bog'liqdir.

Kommunikativ qobiliyat deganda, pedagogik jarayonda muloqot qilishga layoqatlilik tushuniladi. Psixologik adabiyotlarda bu qobiliyat turlicha shakllarda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Jumladan:

Insonning boshqani anglay olish qobiliyati – bu shaxs sifatida qaralayotgan insonning o'ziga xos jihatlari, motivatsiya va ehtiyojlarini tushunish, uning tashqi

¹ Azizxo'jayeva. N. N. Pedagogik texnologiya va mahorat. - Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.

xatti-harakatlarida ichki kechinmalarini ko'ra bilish, yuz ifodasi, qo'l va gavda harakatlarini talqin qila olish qobiliyatidir.

Insonning o'zini anglay olishi – bu o'z bilim va salohiyatini, xarakterini baholay olish, boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini his qila olishdan iborat.

Muloqot holatini to'g'ri baholash – bu mavjud vaziyatni chuqur kuzatish, unga xos belgilarni ajratib olish, diqqatni kerakli nuqtalarga qaratish va jarayonning ijtimoiy-psixologik mohiyatini to'g'ri anglash qobiliyatidir.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari orasida quyidagilar muhim ahamiyatga ega: talab qo'yish, istiqbolni ko'rsatish, rag'batlantirish va jazo choralarini qo'llash, jamoatchilik fikridan foydalanish. Talab – bu o'qituvchining o'quvchiga nisbatan shaxsiy yondashuvi sifatida namoyon bo'lib, unda o'quvchining harakatlari nazorat ostida bo'ladi, ijobiy xatti-harakatlar rag'batlantiriladi, salbiy jihatlari esa o'z vaqtida to'xtatiladi.

Kommunikativ qobiliyat – bu insonning atrofdagilar bilan mazmunli, samarali, ijobiy ruhda muloqot qilish qobiliyatidir. U nutqiy faoliyat, tinglash, neverbal vositalardan foydalanish, emotsional sezgirlik va ijtimoiy tajriba kabi tarkibiy qismlardan iborat. Ushbu qobiliyatlarning rivojlanganda shaxs o'z fikrini aniq ifoda eta oladi, boshqalarni tushunadi va ularga moslashadi.

O'qituvchi uchun kommunikativ qobiliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Nutqiy madaniyat: aniq, ravon, tushunarli nutq.
- Didaktik muloqot ko'nikmasi: bilimni tushunarli tarzda yetkazish.
- Empatiya: o'quvchini his qilish va tushunish.
- Psixologik moslashuv: turli xulqli o'quvchilar bilan ishlay olish.
- Neverbal vositalardan (mimika, jest, tana harakati) foydalanish.

O'quvchilarda bu qobiliyat quyidagicha rivojlanadi:

1. Faol tinglash va fikr bildirish ko'nikmalari orqali.
2. Guruhiy ishlarda ishtirok etish orqali.
3. O'yinli va rolli mashg'ulotlar orqali.
4. O'qituvchi bilan ochiq muloqot orqali.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'siri o'quvchilarning ruhiyatiga ko'p yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir orqali o'quvchilarda ijobiy hissiyotlar, to'g'ri xulq-atvor, munosabatlar va xatti-harakatlar shakllanadi hamda mustahkamlanadi. Biroq, ishonch hosil qilish va tushuntirish usullari turlicha bo'lishi mumkin. Yoshlar ijtimoiy muhit hamda tabiat bilan faol aloqada bo'lib, bu o'zaro ta'sir ularda yangi bilimlar, ishonch va axloqiy me'yorlar shakllanishiga olib keladi.

O'qituvchi tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarning o'zaro ta'siri, ularning kommunikativ aloqalari va faoliyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni e'tibordan chetda qoldirmasligi zarur. Sinf jamoasiga va har bir o'quvchiga pedagogik ta'sir o'tkazishda

muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchi o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni puxta rejalashtirib, sinfdagi psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi kerak.

Tarbiyaviy munosabatlar tizimi mukammal va to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, bu yosh avlodning qalbi va ongini asrab-avaylash, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining ruhiy holatini chuqur o'rganishi, ularning ichki imkoniyatlarini bilishi, ular bilan fikr almashishi, tuyg'ularini tushunishi va dardlariga hamdard bo'lishi lozim.

Pedagogik munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak:

- o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatni oldindan loyihalab chiqishi;
- sinf jamoasining xususiyatlarini ilgari bilib olishi;
- samimiylik va hamjihatlikka asoslangan munosabatlar o'rnatishi;
- yetakchilik pozitsiyasini demokratik tamoyillar asosida oqilona boshqarishi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot sifati ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir. Kommunikativ qobiliyatlarning to'g'ri shakllanishi va rivojlanishi nafaqat bilim olish, balki barkamol shaxs tarbiyasida ham asosiy ro'l o'ynaydi. Bu esa psixologik yondashuvlarga asoslangan metodlar bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva. N. N. Pedagogik texnologiya va mahorat. - Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
2. B. X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti. Toshkent, 2017.
3. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).